

Date: 17th November-2024

TERRORIZM BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI TASHKIL ETISH TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

A.B.Boboraximov

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasi katta o'qituvchisi mayor

G'aybullayev Boburjon Erkin o'g'li

316-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektori o'ziga birlashtirilgan ma'muriy hududda sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlarini aniqlash va oldini olishga doir faoliyati tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy-huquqiy asoslari, tartibga soluvchi huquqiy normalar va soxaviy hamda boshqa davlat organlari bilan amalga oshiradigan hamkorlik doirasi. Shuningdek, profilaktika inspektorlarining mazkur faoliyatni amalga oshirishdagi mavjud muammo va kamchiliklar, hamda ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar yoritib berilgan.

Аннотация: Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что понятие деятельности инспектора по предупреждению террористических актов, которые могут быть совершены на закрепленной за ним административной территории, его специфика, организационно-правовые основы, нормативно-правовые нормы профессиональные и сферу сотрудничества с другими государственными органами. Также освещены существующие проблемы и недостатки инспекторов профилактики при осуществлении данной деятельности, а также ряд предложений по устранению этих проблем и недостатков.

Ilmiy maqolaning dolzarbligi: Respublikamiz aholi turar joylarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ularni oldini olish, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish ichki ishlar organlarining mahalla huquq tartibot maskanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Prezidenti SHovkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham alohida ta'kidlab o'tilganidek, "Mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini turli tahdidlardan himoya qilish, tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash barcha yutuqlarimizning bosh garovidir - degan edi.

Mamlakatimiz prezidenti muxtaram Mirziyoyev SHavkat Miromonovich Ichki ishlar organlarini halqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo'naltirish undan tashqari, Ichki ishlar organlari xodimlarining «Kasbiy madaniyat kodeksi»ni amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash, ichki ishlar organlarini ma'naviy pok, o'z burchiga sodiq, xalqparvar va mas'uliyatli xodimlar bilan to'ldirish, ularning faoliyatini aholi muammolarini hal etish va



Date: 17th November-2024

fuqarolar murojaatlari bilan ishlash natijadorligi hamda ijtimoiy fikr asosida baholash tizimini joriy etish, Ichki ishlar vazirligi va hududiy ichki ishlar organlarida Jamoatchilik kengashlarini tuzish orqali tizim faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tizimini yaratish, Ichki ishlar organlarini maksimal darajada «aholi bilan maqsadli ishlash»ga yo'naltirish, uning xizmat faoliyatiga xos bo'lmagan funktsiya va tuzilmalarini maqbullashtirish kabi ilg'or fikrlarni yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ilgari surdilar.

Bugun aniq aytish mumkinki, agar diniy ekstremizm va aqidaparastlik shiorlari halqaro terrorning g'oyaviy niqobi bo'lsa, narkobiznes va narkotrafik hech shubxasiz, xalqaro terrorning moliyaviy tayanchidir. Shu bilan birga ayrim ekstremistik ko'rinishdagi tashqi kuchlarning ta'siri davlatimizning tinchligi va fuqarolarimizning xavfsizligiga dinni niqob qilib xavf solish tahdidi ham sezila boshladi. Chunki xalqimizning dinga ishtiyoqi katta bo'lib natijada ushbu g'arazli kuchlar din orqali yoshlarimizning ongini begona mafkuralar bilan zaharlashga hamda davlatimizning istiqloli va taraqqiyotiga rahna sola boshladilar.

SHu ma'noda, terrorism, diniy fundamentalizm va ekstremizm singari tahdidlar butun dunyoda bo'lganidek, Markaziy Osiyo xususan, O'zbekistonning tinchligi va osoyishtaligi, yurtimizda yashayotgan millatlar va elatlarning hamjihatligiga ham raxna solmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kabi asarlarida bot-bot aytib dunyo taraqqiyotiga g'ov bo'layotgan ushbu jirkanch illatlarga qarshi barchani ogohlikka chaqirib keladi. "Islom dinini siyosatga aylantirayotgan yovuzlik mafkurasini yaratayotgan ekstremistik markazlarning birinchi navbatda yoshlar ongini zaharlab ulardan terrorchilar tayyorlab musulmon olamida xalifalik davlati tuzishdek hom hayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabix kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak" degan edi davlatimiz rahbari.

Diniy ekstremizm va terrorism o'zining nopok va g'arazli maqsadlari bilan jamiyat barqarorligiga tahdid solayotgan ekan, unga qarshi kurashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

Birinchi, diniy ekstremizm, xalqaro terrorismga qarshi barcha davlatlarning kuchlarini birlashtirgan holda yakdil kurashish, uni ildizidan qirqib tashlash;

Ikkinchi, fuqarolar, xususan, yoshlarimiz orasida dunyoda paydo bo'layotgan zamonaviy tahdidlarni, diniy aqidaparastlikning jirkanch oqibatlarini ekstremistik guruhlarining (vahhobiylik, akromiylar, hizb ut tahrir al islomiy, O'zbekiston islom harakati, ISHID singari) asl g'oya va maqsadlarini batafsil tushuntirish va unga qarshi kuchli mafkuraviy immunitet hosil qilish;

Uchinchi, tegishli sohaviy xizmat xodimlarning keng jamoatchilik bilan hamkorlikda huquqiy targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish, yoshlar bandligini ta'minlash orqali ularning bo'sh vaqtini maqsadli tashkil e'tish, siyosiy, ma'naviy dunyoqarashlarini o'stirish, yuksak vatanparvarlik va ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash muhimdir.



Date: 17th November-2024

Zero, biz farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizga munosib avlodlar qilib tarbiyalasak, mukammal ta'lim-tarbiya bersak, ma'nan va jismonan barkamol voyaga yetkazsak, hech qanday yovuz kuch ularni to'g'ri yo'ldan adashtirmaydi.

Mafkuraviy nuqtai nazardan ekstremizm har qanday boshqacha fikrlarni inkor etadi, o'zining diniy va mafkuraviy qarashlarini qo'pol ravishda majburlab qabul ettirishga harakat qiladi. O'z muholiflarini turli vositalar bilan majburlaydi. Ekstremistlar o'z tarafdorlaridan ularning har bir buyruqlarini so'zsiz bajarishlarini ularga ko'r-ko'rona ishonishni talab qiladi, o'z qarashlarini himoya qiladilar aqlga emas, his-tuyg'ularga suyanadigan ommaning, to'daning instinktiga suyanadilar.

Ma'lumki, O'zbekiston davlati mustaqillikning ilk kunlaridanoq o'zining dinga munosabatini aniq va qat'iy belgilab oldi. Davlatning dinga munosabati "inson e'tiqodsiz yashay olmaydi", "dunyoviylik dahriylik emas" degan aniq tamoyillar asosida belgilandi.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash olib borishda kompleks va tizimli, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy choratadbirlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega, albatta, bunday choratadbirlarni amalga oshirish katta vaqt, tegishli reja va yirik mablag'lar talab qiladi. Ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro birdamlik va kelishuvlar ham katta ahamiyatga ega. Xususan, o'z hududida ekstremistlar va terrorchilar faoliyatiga yo'l ochib bermaslik, ularga hech qanday yordam ko'rsatmaslik va siyosiy boshpana bermaslik hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu ta'rif va baholarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalarga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta'kidlangan

Xuddi shu ma'noda, alohida olingan har bir terrorchilik xurujining maqsadi ekstremistlarning davlat to'ntarishini amalga oshirish, fuqarolar urushini keltirib chiqarishdek siyosiy vazifalar bilan birbiriga mos kelavermasligi oldindan ma'lum. Keyinchalik, amalda, bu nomuvofiqlik terrorchilar jar solayotgan maqsadlar bilan ular erishayotgan natijalar o'rtasidagi ziddiyatga aylanadi. Ayni paytda, bu tajriba yuzaga kelgan qulay vaziyatdan islomchilar zudlik bilan foydalanishga harakat qilishini, Muhammad payg'ambar hayotidan keltirilgan misollarga tayangan, islomni qutqarish zaruratini ta'kidlagan, mavjud muammolarni ro'kach qilgan holda davlat va hukumat rahbarlari hayotiga suiqasd uyushtirish, konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlashga intilishini ko'rsatadi.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi muayyan hududda muayyan davrda ayrim turdagi huquqbuzarlik (odam savdosi, terrorizm, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi, o'g'irlik, bezorilik (mayda bezorilik)larning, shaxslar toifalari (huquqbuzar ayol yoki voyaga yetmaganlar, retsivistlar, giyohvandlar, spirtli ichimlikka ruju qo'yuvchilar, fohishalar kabilar) ko'payganda, shuningdek jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlar (diniy ekstremizm, jamiyatda



Date: 17th November-2024



buzg'unchi g'oyalari tarqalishining avj olishi kabilar) yuzaga kelganda sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan maxsus tadbirlarning namunaviy rejalari asosida amalga oshiriladi. Misol uchun, Ichki ishlar vazirligi tizimida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi bilan bog'liq huquqbuzarliklar ko'payganda yoki muayyan mavsum davomida «Qoradori», axloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklar (fohishalik, qo'shmachilik, fohishaxona saqlash) ko'payganda «Oriyat», nazoratsiz yoki voyaga yetmagan huquqbuzarlar ko'paysa «O'smir», «Nazorat», shuningdek terrorizm va diniy ekstremizm xavfi kuchayganda «Antiterror», «Tozalash» maxsus profilaktik tadbirlar o'tkaziladi. Ushbu tadbirlar rejasida ayrim turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar ham o'z ifodasini topadi.

Ichki ishlar organlarining terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini tashkil etish va takomillashtirishda quyidagi muammolar mavjud:

- Terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hodimlarning bugungi kunda dunyo ahborot olami, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishda bilim saviyasi yetarli daraja emasligi;

- Ichki ishlar organlarining terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini tashkil etish yuzasidan IIOlarning o'zaro sohaviy xizmatlari doirasida hamda boshqa HMQO organlari, shuningdek, FJllari bilan hamkorligining tizimli asosda yo'lga qo'yilmaganligi.

Terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini tashkil etish va takomillashtirishda quyidagi takliflarni kiritishimiz mumkin:

- Uzoq vaqt chet elda bo'lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siridan himoya qilish ishlariga davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va Fuqarolik jamiyati Institutlarini jalb qilish;

- CHet yel huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan muntazam aloqalar olib borish orqali ulardagi tajribalarni qo'llash;

- Aholi o'rtasida ekstremistik va terroristik tashkilotlar targ'ibotchilarining buzg'unchi maqsadlarini fosh etuvchi tashviqot va targ'ibot chora-tadbirlarini o'tkazishda Fuqarolik jamiyati

Institutlariningning imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- Diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, shuningdek, chet elga uzoq vaqtga ketayotgan hamda yashab kelayotgan fuqarolar bilan shug'ullanuvchi boshqa idoralarning kadrlar salohiyati va resurslaridan foydalanish maqsadida ular bilan keng hamkorlikni yo'lga qo'yish va boshqalar.